

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN  
MAKTABGACHA TA‘LIM PEDAGOGIKASI VA PSIXOLOGIYASI  
MODULIDAN MALAKA TEST SINOVU TOPSHIRIQLARI  
SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MAKTABGACHA TA’LIM PEDAGOGIKASI VA PSIXOLOGIYASI MODULIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi umumkasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi moduli talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me’yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi moduli**

1. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi.
2. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi;
3. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining tayanch bilimlari;
4. Maktabgacha ta’limga doir me’yoriy hujjatlar;
5. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi;
6. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi psixodiagnostikasi.

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi.	O‘zbekiston Respublikasining “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida ta‘lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish, bola rivojlanishining barcha sohalarini hisobga olgan holda faoliyatini rejalashtirish, davlat o‘quv dasturi bo‘yicha ta‘limiy-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash.	6 ta
2	Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi	Maktabgacha pedagogikaning maqsad va vazifalari, pedagoglik kasbi va uning kasbiy kompetensiyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi, bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash, o‘yin – maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati ekanligi, MTTning hamkorlik ishlari, bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash mazmuni va mohiyati tahlil qilish haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	6 ta
3	Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisining tayanch bilimlari	Maktabgacha pedagogikaning maqsad va vazifalari, pedagoglik kasbi va uning kasbiy kompetensiyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi, bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash, o‘yin – maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati ekanligi, Psixologiya, bolalar psixologiyasi fanining predmeti, tarmoqlari, metodlari mazmuni, shaxs psixologiyasi va shaxslararo munosabatlar, MTTda ziddiyatli holatlar, faoliyat turlari, shaxsning psixik jarayonlari, holatlari, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi bolalar psixik jarayonlari, holatlari va xususiyatlari, maktabgacha	10 ta

		yoshda bola shaxsining shakllanishi, bolalarni maktabdagi ta'lim jarayoniga psixik jihatdan tayyorlash ilk yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari, ilk yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyalash vazifalarini, kun tartibini tashkil etish, go'daklik va ilk yoshdagi bola psixikasi va rivojlanishi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	
4	Maktabgacha ta'limga doir meyoriy hujjatlar	Maktabgacha ta'limga doir me'yoriy hujjatlar, "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" va "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish, bola rivojlanishining barcha sohalarini hisobga olgan holda faoliyatini rejalashtirish, davlat o'quv dasturi bo'yicha ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash.	6 ta
5	Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi	Psixologiya, bolalar psixologiyasi fanining predmeti, tarmoqlari, metodlari mazmuni, shaxs psixologiyasi va shaxslararo munosabatlar, shaxsning psixik jarayonlari, holatlari, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi bolalar psixik jarayonlari, holatlari va xususiyatlari, maktabgacha yoshda bola shaxsining shakllanishi, bolalarni maktabdagi ta'lim jarayoniga psixik jihatdan tayyorlash haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	6 ta
6	Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi psixodiagnostikasi	Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi fanining nazariy asoslari, maktabgacha yoshdagi bolalar psixodiagnostikasi fanining nazariy asoslari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	6 ta

#### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy	20 %

		jihatdan tahlil qila olish	
2.	<b>Qo‘llash</b>	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

### VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

### VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig‘ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me‘yori belgilanadi.

### VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

### IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 13- maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 22 dekabrda «Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti» 802-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2022 yil 4 fevral 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (Takomillashtirilgan 2-nashr). Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. – T.: 2022.

4. Грошева И.В., Олимов К.Т.vblar. Kuzatish va baholash. O‘zResMTV-2020 yi

5. Sh. Olimov, Sh.Samiyeva, N.Aslanova. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi . Toshkent-2024

6. O. Xasanboyeva. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. Toshkent- 2011.

7. S.X.Jalilova, S.M.Aripova. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent- 2017

8. A.K.Xamrayeva, G. Xamidova, X.N.Ahmedov, Sh.Tog‘ayeva Ta’lim – tarbiya jarayonini rejalashtirish, kuzatish va baholash. Jizzax -2025

9. D.Urazboyeva vblar. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi psixodiagnostikasi Toshkent-2024.

10. R.N.Melibayeva, M.A.Boboyeva, S.M.Aripova Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi Toshkent-2025

*\*Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*